

INGLIZ TILIDAGI FRAZELOGIK BIRIKMALARNING XUSUSIYATLARI VA ULARNI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH MASALALARI

Qurbonova Nafisa Sayitmurot qizi

Oriental Universiteti 1-kurs magistranti

Isroilov Elyor Najmiddin o'g'li

Oriental Universiteti 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15262374>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilidagi frazeologik birikmalarning strukturaviy va semantik xususiyatlari tahlil qilinib, ularni o'zbek tiliga tarjima qilishda uchraydigan asosiy muammolar yoritilgan. Frazeologizmlarning turli tasniflari, tarjima usullari va kontekstda to'g'ri qo'llanishi misollar asosida ko'rib chiqilishi maqolaning dolzarbligini belgilaydi. Ushbu maqolada ingliz tilidagi frazeologizmlarning xususiyatlari va ularni o'zbek tiliga tarjima qilishdagi dolzarb masalalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: frazeologik birliklar, tarjima muammolari, semantik ma'no, kontekstual ma'no, tarjima usullari va strategiyalari.

Kirish

Frazeologik birikmalar har bir tilning boyligi bo'lib, xalqning dunyoqarashi, mentaliteti va tarixiy tajribasini ifodalaydi. Ular ko'pincha ko'chma ma'noga ega bo'lib, tarjima jarayonida lingvistik va madaniy muammolarni yuzaga keltiradi. Frazeologizmlarni tarjima jarayonida to'g'ridan-to'g'ri ifodalanmaydi, balki butun bir birikma yaxlit ma'no bildiradi. Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologizmlar ko'pincha tillar o'rtasidagi madaniy, tarixiy va ijtimoiy farqlarni aks ettiradi. Frazeologizmlar ikki yoki undan ortiq so'zlarning o'zaro bog'lanishidan hosil bo'ladi va ularning alohida ma'nolarining tarjimasidan farq qiladi. Ingliz tilidagi frazeologik birikmalarning turli xil xususiyatlari mavjud bo'lib, ular ingliz tilidagi turli xil tuzilmalar shaklida namoyon bo'ladi [6]. Ular idiomalar (idioms), maqollar (proverbs), iboralar (phrasal verbs), kollokatsiyalar (collocations) va boshqa turdagi ifodalardan tashkil topgan. Frazeologik birliklar semantik yaxlitlikka ega bo'lib, ularni tashkil etuvchi so'zlar o'zining dastlabki lug'aviy ma'nosini yo'qotgan bo'ladi. Masalan: *"Break the ice"* – vaziyatni yumshatmoq; - *"Let the cat out of the bag"* – sirni oshkor qilmoq; *"Piece of cake"* – juda oson deb tarjima qilinadi. Bunday birikmalar tarjimada o'zbek tilidagi ma'nodosh iboralarini topishni talab qiladi.[8]

Frazeologizm tilning boyligini, til muhitini va uning tarixi bilan bog'liq ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarni aks ettirib quyidagicha turkumlarga ajratiladi [5]:

1. **Idiomalar** (idioms) – bu eng keng tarqalgan frazeologik birikmalar bo'lib, ularning ma'nosi so'zlarning alohida ma'nolaridan butunlay farq qiladi. Masalan, ingliz tilida *"kick the bucket"* (o'linga uchramoq), o'zbek tilida esa *"ko'z ochib yumguncha"* (*tez orada*) kabi iboralar mavjud.

2. **Proverbial frazeologizmlar** – bu xalq maqollaridan olingan frazeologizmlar bo'lib, ular ko'pincha umumiy hayotiy qonuniyatlarni ifodalaydi. Masalan, ingliz tilida *"A bird in the hand is worth two in the bush"* (qo'lga kiritilgan bir qush, butun o'rmonlik qushlardan qimmatroq) va o'zbek tilida *"Bir og'iz so'z – ming taqdir"* (to'g'ri so'zning kuchi) kabi misollar keltirilishi mumkin.

3. **Frazali fe'llar** (phrasal verbs) – ingliz tilida juda ko'p uchraydigan frazeologik birikmalar bo'lib, unda yordamchi fe'l va asosan ma'nosi o'zgaradigan asosiy fe'l bilan birikadi. Masalan, *"give up"* (*taslim bo'lmoq*), *"break down"* (*buzilmoq*) kabi [3].

Frazeologizmlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda bir nechta muammoli vaziyatlar duch kelinadi:

Tarjima jarayonida uchraydigan asosiy muammolar quyidagilar [2]:

1. So'zma-so'z tarjima qilish mumkin emasligi.
2. O'zbek tilida to'g'ri ekvivalent mavjud emasligi.
3. Madaniy farqlarning mavjudligi.
4. Kontekstning tarjimaga ta'siri.

Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologizmlarning leksik tarkibi va semantik strukturalarining o'xshashlik va farqli tomonlari mavjud. Misol uchun, ingliz tilidagi *"raining cats and dogs"* (juda kuchli yomg'ir yog'ayotgan) iborasi o'zbek tilida *"qor uchqunlayotgan"* yoki *"yomg'ir yog'ayotgan"* tarzida ifodalash mumkin. Har ikkala frazeologizmning ma'nosi bir xil bo'lsa ham, tasvirlangan obyektlar turlicha. Ular o'rganilayotgan tilga xos bo'lgan tarixiy voqealar, ijtimoiy an'analarga asoslangan bo'lishi mumkin.

Frazeologizmlar tilga xos tarixiy voqealar, ijtimoiy an'analarga asoslangan bo'lishi mumkin. Misol uchun, ingliz tilidagi *"to bring home the bacon"* (oilaviy bo'lish, uyga pul olib kelish) iborasi inglizlarning tarixi va madaniyatiga bog'liq bo'lib, o'zbek tili uchun *bacon* yot tushuncha hisoblanadi va ushbu iborani o'zbek tilidagi *"non topish"* kabi iboralar bilan ekvivalenti topiladi. O'zbek xalqining o'ziga xos hayot tarzini aks ettiradi.

Frazeologizmlar ingliz va o'zbek tillarida sintaktik jihatdan farq qiladi. Masalan, ingliz tilida frazali fe'llar ko'p uchraydi, o'zbek tilida esa shunday iboralar ko'proq to'g'ri fe'l va modifikatorlar orqali ifodalanadi. Shuningdek, ingliz tilida *"run out of"* (birozdan keyin tugash) kabi iboralar o'zbek tilida *"to'liq tugash"* tarzida ifodalanishi mumkin.

Frazeologizmlarni tarjima qilishda bir nechta asosiy yondashuvlar qo'llaniladi:

- **To'liq ekvivalent topish (fully equivalent):** *"Time is money"* – *"Vaqt – pul"*
- **Moslashtirish (adaptatsiya-adaptation):** *"It's raining cats and dogs"* – *"Yomg'ir shiddat bilan yog'moqda"*
- **Tavsifiy (izohli-translation with explanation) :** *"To add fuel to the fire"* – *"Vaziyatni yanada murakkablashtirmoq"*

Tarjimon har bir frazeologizmdagi semantik ma'no va madaniy zaminni hisobga olishi kerak.

4. Ingliz va o'zbek frazeologizmlarining taqqosiy tahlili

Ba'zi inglizcha frazeologik birliklarga o'zbek tilida yaqin ekvivalentlar mavjud:

- *"Bite off more than you can chew"* – *"Bo'ynindan katta ishga urinmoq"*
- *"Burn the midnight oil"* – *"Tunlari mehnat qilmoq"*
- *"Hit the nail on the head"* – *"To'g'ri nuqtani topmoq"*

Biroq, ba'zi iboralar madaniy o'ziga xoslik tufayli bevosita tarjima qilinmaydi va kontekstga qarab izohli tarzda tarjima qilinadi. Ingliz tilidagi *"to kill two birds with one stone"* (ikki qushni bir tosh bilan urish) frazeologizmi va o'zbek tilidagi *"bir o'q bilan ikki qushni urish"* iborasi o'xshash bo'lsa ham, ammo bu iboralarni tarjima jarayonida xalqlarni madaniy tarziga e'tibor berish talab qilinadi. Ularning ishlatilishi ikki xalqning o'xshash mehnat va hayot tarzlarini ko'rsatadi, lekin har bir frazeologizmi o'z madaniyati va tarixiy tajribasiga mos ravishda tushunish zarur. Frazeologizmlar tilda nafaqat ma'noni to'g'ri ifodalash, balki tilning estetik va ifodaviy imkoniyatlarini kengaytirish uchun ham xizmat qiladi. Tilni boy va rang-barang qilishda frazeologizmlar o'zgacha rol o'ynaydi, chunki ular so'zlashuvda va yozuvda

o'ziga xos ifoda vositalarini yaratadi. Masalan, ingliz tilidagi "a penny for your thoughts" (fikringizni aytib bering) yoki o'zbek tilidagi "so'zingizni ayting" iboralari nafaqat oddiy so'zlardan iborat bo'lib, balki nutqning ko'proq tasviriy va ifodaviy shaklini yaratadi. Bu frazeologizmlar nutqni yanada jonli, mazmunli va hissiy jihatdan boy qiladi.[8]

Xulosa. Frazeologizm – bu nafaqat so'z birikmasi, balki bir tildagi odamlarning fikrlash tarzini, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarni ifodalovchi qudratli vositadir. Har bir frazeologizm o'zida tilga xos tarixiy va madaniy qatlamlarni saqlaydi, bu esa uni o'rganishni qiziqarli va murakkab qiladi. Frazeologizmlar tilda faqat ma'nolarni ifodalashda emas, balki nutqning rang-barangligi va ifodaviyligini oshirishda ham katta rol o'ynaydi. Ular nafaqat so'zlashuvda, balki adabiyotda ham muhim ahamiyatga ega. Ingliz va o'zbek tillarida frazeologizmlar odamlarning hissiyotlarini, kayfiyatini, munosabatlarini yanada aniqroq ifodalash imkonini beradi. Frazeologik birliklar tilni jonli va rang-barang qiladi. [4].

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Л.: Из-во ЛГУ, 1963. – 207с.
2. Бушуй Т.А. Констрастивная лексикография в уровневой интерпретации фразеологии исходного языка: дисс...доктора.филол. наук. – Самарканд, 1999. – 490 с.
3. Добровольский Д.О. Национально-культурная специфика во фразеологии // Вопросы языкознания. 1997. № 6. – С. 37-48
4. Ковшова М.Л. Лингвокультурологический метод во фразеологии: Коды культуры. – М.: Книжный дом «Либриком», 2013. – 456с.
5. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. Кунин А.В. – Изд. 3-е, испр., в двух книгах. – М.: СЭ, 1967. – Т.1. – 738с.; Т.2. – 739 – 1264 с.
6. Маслова В.А. Культурно-национальная специфика русской фразеологии // Культурные слои во фразеологизмах и дискурсивных практиках / Отв. ред. В.Н. Телия. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 344с.
7. Xolmatova, O. O. K. (2023). O 'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA MIQDOR KONSEPTINING KOGNITIV XUSUSIYATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(7), 292-299.
8. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1977. – 224 б.